

SANOATDA OQAVA SUVLARINI TOZALASH USULLARI BILAN TANISHISH

Vafoqulova Mohinur Alisher qizi

Talaba

Jizzax politexnika instituti

Abdumutalova Sevinch Dilmurod qizi

talaba

Jizzax politexnika instituti

Karimova Feruza Sattarovna

katta o'qituvchi

Jizzax politexnika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sanoatda oqava suvlarini tozalashda biologik tozalash usullaridan foydalanishning samarali yo'llari haqida fikr yuritilgan. keltirilgan.

Kalit so'zlar: Suv, bakteriya, rekuperatsion usul, oksidlash yoki qaytarish usul.

Suv tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarda hamda sanoatda xomashyo, energiya manbai, sovutuvchi va isituvchi va boshqa ko'p joylarda ishlatiladi. Suv inson hayotida nafaqat tirik organizm uchun muhim ahamiyatga ega. Suv- bu hech qanday ta'sirlarsiz ishtiroksiz tabiiy jarayonlar natijasida sifatli va tiniq bo'lib shakllangandir. Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi yashash joylarining ko'payib borishi, texnikaning rivojlanishi, katta-kichik sanoat korxonalarining ochilishi, suvga chiqindilarning tashlanishi, ular o'zining turli bakteriyalar chiqarishi suv havzalarini buzulishiga olib kelayapti. Suv turli xil moddalar bilan ifloslanganda uni texnologik usullar bilan tozalashimiz kerak. Tabiiy tozalashda suvni tagidagi yashil o'tlar, zamburug'larni misol qilib olsak bo'ladi. Suv havzalarini muhofaza qilish uchun suvlarni havzalarga tashlashdan oldin uni chuqur tozalash kerak. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda va sanoatda oqova suvlari juda zaharli, kimyoviy reagent elementlarga boy bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarishda oqova suvini ishlatishda yopiq tizimdan foydalansa maqsadga muvofiqdir. Oqova suvlarida ifloslantiruvchi moddalar ko'plab uchraydi. Bulardan bittasi bakteriyalardir. Suvni tozalashni o'ziga xos usullari bor. Birinchisi rekuperatsion usul, ikkinchisi rekuperatsion usuldir. Rekuperatsion usulimiz oqova

suvini tarkibidagi qimmatbaho moddalarni ajratib olib keyin qayta ishlashga yuboradi. Destruktiv usul suvni ifloslantiruvchi moddalardan oksidlash yoki qaytarish usullari yordamida parchalaydi. Yangi inshootlar qurulishida kanalizatsiyalash obyektlarida, birinchi o'rinda oqova suvlarini miqdorini to'g'ri hisobga olish kerak. Tozalash inshootida oqova suvlar qaytadan tozalanadi, zararsizlantiradi undan hosil bo'lgan cho'kmalar qayta ishlanadi. Tozalangan oqova suvlar havzalarga tashlanib, sug'orish uchun ishlatiladi. Katta kimyoviy zavodlar yiliga bir necha million kub metr toza suvdan foydalanadi.

Suvning tarkibidagi sulfatlar, xloridlar va suvning qattiqligi ma'lum miqdorda kamayganligi kuzatildi. Parradachilik korxonalarida oqava suvlari pistiya o'simligi ta'sirida organo- mineral moddalardan 90-95% gacha tozalanishi mumkin ekanligi aniqlandi. Tozalangan suvni qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda va korxonaning o'ziga ikkilamchi suv sifatida ishlatish mumkinligi aniqlandi. Oqava suvda faollik bilan rivojlanib, hosil bo'lgan pistiya o'simligining biomassasi baliqchilikda va parrandachilikda oziqa sifatida xamda biomassa qayta ishlanib, undan tuproq unumdorligini oshirishda bioo'g'it sifatida va biomassa tarkibidagi fiziologik faol moddalar-oksillar, uglevodlar, vitaminlar va boshqalar ajratib olinib, turli sohalarda qo'llanishi mumkinligi isbotlandi. Misol qilib, Zomin tumanidan chiqadigan korxonalardan va kommunal xo'jaliklardan chiqadigan oqava suvlar industrial qurilmalarga (aeratenklarga) va biologik hovuzlarga qo'yilib organo-mineral va bakteriologik iflosliklardan tozalanish tadqiqotini yo'lga qo'yilganligini aytishimiz mumkin. Ushbu oqava suvlarni yuksak suv o'simliklari kichik ryaska ta'sirida tozalash darajasini o'rganish uchun bir qator tajribalar o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda shuni xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kichik ryaska o'simligining oqava suvlarida laboratoriya sharoitida o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va suvlarni ifloslanish darajasidan tozalash mumkinligi aniqlangandan keyin, ryaska o'simligi oqava suvlarni tozalovchi biologik hovuzlarga ekila boshlandi. Bu usul hozirgi kunda kimyoviy riagentlar bilan tozalash usuli kabi samarali bo'lmasa ham sezilarli ko'lamda qo'llanilishi yo'lga qo'yildi. Umuman olganda oqava suvlarni turli yo'llar bilan qayta ishlash jarayonini rivojlantirish tabiatdagi toza suvdan oqilona foydalanish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Semenov I.N, Maksimov A.A Kimyo va ilmiy-texnik taraqqiyot.
2. Legasov V.A Kimyoni rivojlantirish muammolari: kelajakka yutuq.
3. Solovyov Yu.I, Kurashov V.I Kimyo fanlar chorrahasida-O'zaro ta'sirning rivojlanishining tarixiy jarayoni.

4. Gulbayev, Y. I., Abdullayev, A. A., Qurbonova, D. S., & Raxmatillayev, X. O. O. G. L. Mikroorganizmlarning suvlarda tarqalishi va suvlarni turli yo‘llar bilan toalash. *Science and Education*, 3(4), 330-337.
5. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Холмунинова Д. А. Нарушение естественных процессов активного водообмена голодно-степского региона и его воздействие на изменение рационального использования ресурсов подземных вод // *Universum: химия и биология*. – 2022. – №. 2-1 (92). – С. 5-9.
6. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С. Структурно-гидрогеологический анализ формирования подземных вод северо-нуратинского и санзарского месторождений // *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 515-517.
7. Каримова Ф. С., Позиллов М. Н. Структурно-гидрогеологический анализ формирования подземных вод зааминского и раватского месторождения, . – 2022.
8. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Жўраева У. Б. Қ. Жиззах вилоятида оқар сувлардан фойдаланишнинг истиқболли йўллари // *Academic research in educational sciences*. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 482-488.